



## Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-mart

dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 148 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 145 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 437,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 108,3 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 102,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 131,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 334,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 149,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,4 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 048 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 433,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 269,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,6 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega Guliston sh. (2,4 m.) va Sirdaryo (45,6 m.), Sardoba (4,4 m.), tumanlarida kuzatildi.

#### **Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### **III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2025- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 604 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 602 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 828,3 mlrd soʻmga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiqa toʻq’ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> K.Yusupov Tel: +672367000 (2040)	<b>Ijrochi:</b> K. Yusupov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: <a href="mailto:info@sirstat.uz">info@sirstat.uz</a>	<b>Manzil:</b> Guliston sh., Birlashgan ko'chasi, 62
--	---	--	---